

## **O`SMIRLAR VA BOLALARINI MUSTAQIL BO`LISHGA TARBIYALASHNING AHAMIYATLI JIHATLARI**

**Esbergenova Z.T.**

*Qoraqalpog'iston Respublikasi,*

*Qonliko'l tumani 18-son maktab amaliyotchi psixologi*

**Annotatsiya.** *Bu maqolada o`smirlar va bolalarini mustaqil bo`lishga tarbiyalashning ahamiyatli jihatlari, qanday tarbiyalash usullari, ota-onalarga tavsiya berish masalalari yoritib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *o`smir, bola, mustaqillik, mehnat tarbiyasi, tarbiya, barkamol avlod, turmush tarzi, uy ishlari, uy ro`zg`or yuritish.*

Bugungi kunda texnika, texnologiya asri kirib kelgan bir davrda barkamol avlodni har tomonlama, har qanday hayotiy vaziyatlarga tayyor turadigan darajada tarbiyalash juda dolzarb muammoga aylangan. Chunki yosh avlod barcha turmush, maishiy masalalarda hamma narsaning tayyoriga, tayyor xizmatlarga o`rganib qolmokda. Bu har tomonlama rivojlangan davlatlardagi kabi yaxshi sharoit, lekin bu yosh avlodni yalqov, dangasalikga, turmushdagi har xil vaziyatlarga tayyor bo`lmaslikga undayotgandek go`yo. Misol uchun, bugungi kunda o`g`il bola rozetkani, kranni, mebel`ni ta`mirlab bilishi uchun, qiz bola ovqat tayyorlab biladigan bo`lishi uchun nima qilish kerak? Ikkalasi ham uy-joy-xizmatlari, poliklinika, soliq va boshqa masalalar bilan mustaqil shug`ullana oladigan bo`lishlari uchun chi? Shunday savollar tug`ilar ekan, demak bu bugungi kunda ta`lim va tarbiya masalalarining dolzarb muammosi hisoblanadi. Haqiqatdan ham shunakamikin? Buni bu borada olib borilgan izlanishlarni tahlil qilgan holda bilib olamiz.

Buyuk mutafakkir Ibn Sino bola tarbiyasi va tarbiya usullari haqida qimmatli fikrlarini bildirgan. Ibn Sino bolaning axloqiy tarbiyasi haqida bildirgan fikrlarida uy – ro`zg`or tutish masalalari xususida ham so`z yuritadi. Bolani tarbiyalash oila ota – onaning asosiy maqsadi va vazifasidir. O`z kamchiliklarini tuzatishga qodir bo`lgan ota – ona tarbiyachi bo`lishi mumkin. Axloqiy tarbiyada eng muxim vositalar bolaning nafsoniyatiga, g`ururiga tegmagan holda, yakkama – yakka suxbatda bo`lish unga nasixat qilishdir.

Ibn Sino bolada axloqiy xususiyatlarni mehnat, jismoniy aqliy tarbiya bilan uzviy birlikda shakllantirishni, uni inson qilib kamol toptirishda asosiy omil deb biladi [2].

Bola tarbiyasida asosiy masala nima? – degan savolga ko`pchilik deyarli juda uzun va ko`p so`z bilan javob berishi mumkin. Hattoki har qanday sut emizuvchi hayvon ham tabiiy holda o`z avlodini mustaqil ravishda yashab ketishga tayyorlaydi.

Agarda jamiyatimizda ota-onalar, pedagoglar oldiga kelajak avlodni mustaqil hayotga har tomonlama tayyor, infantil` emas, o`zlari mustaqil qaror qabul qila oladigan qilib tarbiyalash vazifasi to`g`ridan-to`g`ri qo`yilganda edi- biz o`ylagandek natija bergen bo`lar edi [1].

Shuning uchun ham bugungi kunda mamlakatimizda bu masala siyosat darajasiga ko`tarilib, kelajak avlod ta`lim –tarbiyasi uchun kasb-xunar maktablari, har-bir maktabda hayotga tayyorlovchi har-xil to`garaklar ishlari qayta tashkillashtirilgan.

Aslida bu narsa juda qiyin emas: bolani mehnatga, uy ishlariga, katta- kichik oila a`zolariga yordam berishga o`rgatish kerak. Oilada nechta bola bo`lishi muhim emas, hammasi tarbiyaga bog`liq. Katta oilalarda erkatoy, injiq «sevimli» bittasi bo`lishi mumkin. Oilada yolg`iz farzand bo`lsa u – mas`uliyatli va ishonchli qilib tarbiyalangan bo`lishi mumkin.

Bolada oilaning boshqa a`zolariga, yaqinlariga, do`stlariga nisbatan g`amxo`r munosabatda bo`la olishni shakllantirish lozim. Uyda nimadir ishlashga o`rgatish lozim: o`g`il bolalarga – «erkak kishi ishlari» da yordam berishga, qiz bolalarga esa, «ayol kishi ishlari» da yordam berishga o`rgatish kerak. Lekin hech qanaqa ishni uni ishi buni ishi deb ajratmaslik kerak, hamma narsani ishlab o`rganish kerak [1].

Lekin, afsuski oxirgi vaqtarda jamiyatimizda «iflos ish», «og`ir ish» kabi iboralar paydo bo`lgan, ota-onalar bollarimizni bunaqa ishlardan asrashimiz kerak deb yuradilar. Yana «obro`li» ish degan tushunchalar ham mavjud bo`lib, ko`pchilik shunaqa ishlarga yo`naltirishni xohlashadilar.

Bunday holatlar ota-onalarni qiziqtirmaydi, shunaqa tarbiya natijasida farzandlar o`zini haddan tashqari sevadigan, qo`llarini sovuq suvgaga urmaydigan bo`lib shakllanadi, ular telefondan og`ir narsani ko`tara olmaydigan, mixni qanday qilib to`g`ri urishni bilmaydigan bo`ladi.

Bularning barchasiga ota-onalarning o`zlari, qolaversa tarbiyachilar aybdor hisoblanadi. Hozirgi paytda bolalar kattalarning og`zidan quyidagicha so`zlarni ko`plab eshitadilar: «Hali ishlashga ulgurasan». Bu umuman xato yondashuv! Bola

kanchalik ertaroq kattalar mehnatiga tortilsa, ya`ni o`ziga-o`zi xizmat qilishga o`rgansa, bola uchun shunchalik yaxshi bo`ladi. Kichkina bola har doim umumiy turmush tarzida qatnashishga harakat qiladilar, chunki u ham bioijtimoiy tizim.

Shunday qilib, ota-onalar uchun eng muhim narsa bu bola tarbiyasida aniq maqsadni shakllantirib olish, bolani sotsiumda mustaqil yashashga tayyorlash hisoblanadi. Bolani yaxshi ko`rishga, do`stlashishga, boshqa odamlar bilan muloqatda bo`lishga, o`zini xafa qilib qo`ymaslikga, qobiliyatlarini rivojlantirishga o`rgatish kerak bo`ladi.

Shuningdek, bolani fikrlashga, maqsad va vazifalarni belgilab olishga yoshligidan o`rgatib borish maqsadga muvofiq bo`ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Новосадова О.М. Родительская академия, №2 (43) апрель—июнь 2015
2. O'ljaeva Sh. Sharq mutafakkirlarining farzand tarbiyasi haqidagi fikrlari. O`zbekiston tarixi. Tashkent, 2019